

**BIR SOSTAVLI GAPLAR TADQIQIDA LOGIK VA GRAMMATIK
KATEGORIYANING O'RGANILISHI**

Mahmudova Dilafruz Salijanovna,
Qo'qon davlat universiteti tadqiqotchisi
d.mahmudova@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18605854>

Annotatsiya. Ushbu maqolada bir sostavli gaplar tadqiqiga oid logik va grammatik kategoriyalar o'rganilishi turli tilshunos olimlar qarashlarida yoritib berilgan. Mantiq inson tafakkurining asosiy vositasi bo'lib, u orqali inson borliqni anglaydi, tahlil qiladi va xulosa chiqaradi. Dunyo tilshunosligida ham lingvist olimlar merosini qayta o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar soni ortib borayotganini kuzatish mumkin. Negaki, keyingi yillarda lingvist-tadqiqotchilarning soni keskin oshib bormoqdaki, bu ular tanlagan tilshunoslik yo'nalishi rivojiga hissa qo'shgan insonlarning ilmiy qarashlari bilan yaqindan tanishishni zarur qilib qo'yadi. Bu, avvalo, zamonaviy lingvistik qarashlarning paydo bo'lishiga turtki bo'lsa, boshqa tarafdin esa fanga doir avvalgi qarashlarni yana-da boyitishga xizmat qiladi. Fanning yangi rivojlanish yo'nalishlaridan kelib chiqib mavjud qarashlarni boyitish, qayta tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Ana shuni tufayli bu turdagi tadqiqot ishlari dolzarblik kasb etadi.

Kalit so'zlar: mantiq, falsafa, kategoriya, sintaksis, mantiqiy tushuncha, grammatik ma'no, tafakkur, sintaktik nazariya, grammatik shakl.

Abstract. This article examines the study of logical and grammatical categories related to the study of complex sentences from the perspectives of various linguists. Logic is the main tool of human thought, through which a person understands, analyzes and draws conclusions about existence. In world linguistics, one can also observe an increasing number of studies aimed at re-examining the heritage of linguists. After all, in recent years the number of linguist researchers has been increasing sharply, which makes it necessary to get acquainted with the scientific views of people who contributed to the development of their chosen field of linguistics. This, first of all, gives impetus to the emergence of modern linguistic views, and on the other hand, serves to further enrich previous views on the science. It is important to enrich and re-analyze existing views based on new directions in the development of science. That is why this type of research is becoming relevant.

Keywords: logic, philosophy, category, syntax, logical concept, grammatical meaning, thought, syntactic theory, grammatical form.

Аннотация. В данной статье рассматривается изучение логических и грамматических категорий, связанных с изучением сложных предложений, с точки зрения различных лингвистов. Логика — главный инструмент человеческого мышления, посредством которого человек понимает, анализирует и делает выводы о существовании. В мировой лингвистике также наблюдается рост числа исследований, направленных на переосмысление наследия лингвистов. Ведь в последние годы резко увеличилось число исследователей-лингвистов, что делает необходимым ознакомление с научными взглядами людей, внесших вклад в развитие выбранной ими области лингвистики. Это, во-первых, дает импульс появлению современных лингвистических взглядов, а во-вторых, способствует дальнейшему обогащению прежних представлений о науке. Важно обогащать и переосмысливать существующие взгляды, опираясь на новые направления развития науки. Именно поэтому этот тип исследований становится все более актуальным.

Ключевые слова: логика, философия, категория, синтаксис, логическое понятие, грамматическое значение, мышление, синтаксическая теория, грамматическая форма.

Kirish. Qadimgi yunon falsafasida mantiqqa oid ilk tizimli qarashlar miloddan avvalgi IV asrda yashab o'tgan buyuk mutafakkir Aristotel tomonidan ilgari surilgan.

[1.Б.5] Aristotel “ mantiq ” atamasini bevosita qo‘llamagan bo‘lsa-da, uning mantiqqa oid qarashlari keyinchalik uzoq vaqt davomida Yevropa va Sharq ilm-faniga chuqur ta‘sir ko‘rsatgan. Aristotel mantiqni inson tafakkurining shakllari va qonuniyatlarini o‘rganadigan fan sifatida qaragan. U fikrlash va shakllarning o‘zaro bog‘liqligi, asos va xulosalar orasidagi munosabat, tushuncha, hukm va xulosa kabi asosiy mantiqiy elementlarni birgalikda tahlil qilgan. Uning fikricha, mantiq bilimiga erishish vositasi bo‘lib, tafakkur shakllarini aniqlashtirish orqali haqiqatga yetaklaydi. [2.Б.5] Aristotel mavjudlikni anglash uchun 10 ta kategoriya ya‘ni mavjudotlarning eng umumiy belgilarini ilgari suradi: substansiya, sifat, miqdor, munosabat, joy, vaqt, holat, egalik, harakat, sezgi kabi kategoriyalar. [3.Б.46] Aristotel tomonidan yaratilgan mantiqiy sistema jumladan, tushunchalar, sillogizm, kategoriyalar, mantiqiy qonunlar zamonaviy mantiqshunoslik, tilshunoslik, falsafa va ilmiy metodologiya asoslarini shakllantirdi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Tilshunoslikda grammatik va logik kategoriyalarning o‘zaro munosabati haqidagi masalasi lingvistik adabiyotlarda ko‘p hollarda keng doirada ko‘rib chiqilmadi. Hukm bilan gap, shuningdek, mantiqiy va grammatik kategoriyalar orasidagi munosabat masalalarini ko‘pincha bir butun muammo sifatida tadqiq etiladi. Biroq bu masalalarni alohida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq, chunki ular orasida farqlar mavjud. Masalan, birinchi holatda hukm (fikir) va tilning aniq birligi gap (nutqiy shakl) bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi holatda mantiqiy hamda grammatik tabiatga ega kategoriyalar haqida so‘z bormoqda. Mantiqiy tushunchalar va grammatik ma‘nolar o‘rtasidagi munosabatni tahlil qilishda, avvalo, boshlang‘ich tushunchalar aniqlab olinishi kerak. Bu yerda umumiy grammatik va mantiqiy kategoriyalar haqida emas, balki mantiqiy tushunchalar va grammatik ma‘nolar o‘rtasidagi moslik haqida so‘z yuritish maqsadga muvofiqdir. Mantiqiy tushunchalar ham, grammatik ma‘nolar ham o‘z tabiatiga ko‘ra turlicha bo‘lishi mumkin. Grammatik ma‘nolarni faqat munosabatlarni ifodalovchi vosita sifatida ko‘rsatish xato, bu yondashuv ba‘zan an‘anaviy grammatikachilar qarashlarida kuzatiladi.

Muhokama. Grammatik jins (rod) masalasida ham grammatik va mantiqiy tushunchalar mos kelmaydigan misollar mavjud. O‘zbek tilida grammatik jins kategoriyasi mavjud emas. Garchi o‘zbek tilida jins farqlanmasa-da, ayrim so‘zlarning ma‘no yuklamasi orqali jins ifodalanishi mumkin. Masalan, muallim – muallima kabi juftliklarda jinsga oid ma‘lumot kontekstdan, so‘zning semantikasidan kelib chiqadi. Ammo rus yoki nemis tilida jins grammatik jihatdan belgilangan. Masalan, rus tilidagi “солдат” so‘zi erkak jinsda ishlatiladi, lekin ayol kishi ham soldat bo‘lishi mumkin. Shuningdek, rus tilidagi “птица” (qush) so‘zi ayol jinsda, lekin u erkak yoki urg‘ochi bo‘lishi mumkin. Demak, grammatik jins bilan tabiiy jins bir-biriga har doim to‘g‘ri kelavermaydi. Yuqoridagi misollardan ko‘rinadiki, grammatik va mantiqiy kategoriyalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqqoslash har doim ham to‘g‘ri natija bermaydi. Tushuncha va grammatik forma

orasida bog‘liqlik mavjud bo‘lsa-da, u bevosita emas. Tilshunos O.Yespersen ta’kidlaganidek, til vositalari ongdagi tushunchalar orqali tashqi dunyoni ifodalaydi. [4.C.32-33.] Masalan, son kategoriyasi bitta va ko‘p tushunchalariga, zamon kategoriyasi esa hozirgi, o‘tgan va kelajak tushunchalariga tayanadi. Biroq ayrim tilshunoslar bu grammatik shakllarni bevosita mantiqiy kategoriyalarga tenglashtirib yuborishga harakat qilgan, natijada noaniqliklar yuzaga kelgan. Masalan, “fe’l – harakatni bildiradi” degan jumla umumiylik darajasida to‘g‘ri bo‘lsa-da, u orqali fe’lning grammatik tizimini to‘liq tushuntirib bo‘lmaydi. Shuningdek, grammatik zamonlar ham faqat real vaqtga emas, balki uslub, kontekst va harakatning ko‘rinishiga bog‘liq. Masalan, o‘zbek tilida “Men ertaga boryabman” degan jumlada “boryabman” shakli kelajak zamoni bildirsa-da, bu grammatik jihatdan hozirgi zamon shaklidir. Shunday qilib, grammatik kategoriyalar tushunchalarga asoslangan bo‘lsa-da, ular tilning o‘ziga xos tizimi ichida shakllanadi. Grammatika va mantiqiy fikrlash o‘rtasida ma’lum darajada uzviylik mavjud, lekin ularni aynan tenglashtirib bo‘lmaydi. Grammatika o‘z qonuniyatlariga ega murakkab tizimdir. Shu bois, grammatik ma’no mantiqiy asosda vujudga kelgan bo‘lsa-da, uni til strukturasi ichida o‘rganish lozim.

O‘zbek tili sintaksisida logik va grammatik kategoriya o‘rtasidagi farqlash masalasi XX asr o‘rtalaridan boshlab kichik ko‘lamda tadqiq qilina boshlandi. Ungacha bo‘lgan davrda o‘zbek tilshunosligida sintaktik birliklar ko‘proq grammatik shakl asosida o‘rganildi. Bunga hamohang fikrlar A.Nurmonov va N.Mahmudovlar tomonidan ham bildirilgan: “Har qanday lisoniy belgi shakl va ma’no birligidan iborat. Lekin an’anaviy sintaktik nazariyalarda asosan gapning shakliy tuzilishi o‘rganib kelindi.” [7.B.2] Gaplar faqat grammatik jihatdan gap bo‘laklari, turkumlari, ifoda shakllari orqali tasniflangan. Biroq ayrim tasniflarda logik va grammatik jihatlar beixtiyor qorishib ketgan.

Natijalar. I.Rasulov “Hozirgi o‘zbek tilida bir sostavli gaplar” nomli doktorlik dissertatsiyasida sintaksis doirasida ilk bor grammatik kategoriya (gap bo‘laklari, ularning joylashuvi) va logik kategoriya (predikat, sub’ekt, muqobil fikrlar) farqlanishi haqida fikr yuritilgan. Bu davrda O‘zbek tilshunosligida gapning mazmun (logik) va tuzilma (grammatik) tomonlarini alohida o‘rganish kengayadi. “Gap – bu fikr ifodasining grammatik shaklidir” degan konsepsiya asosida grammatik va logik qatlamlar tizimlashtirila boshlanadi.

Tilshunoslikda sodda gaplarning tasnifi muhim sintaktik masalalardan biri hisoblanadi. Bu borada Inomjon Rasulov o‘zining ilmiy izlanishlarida sodda gaplarni tahlil qilishda an’anaviy tasnif usullarini ko‘rib chiqadi va yangicha yondashuvlarni ilgari suradi. Uning tadqiqotlarida logik va grammatik kategoriyalarning farqlangani yaqqol sezilib turadi. I.Rasulov sodda gaplarning tasnifida faqat grammatik belgilar hisobga olish kerakligini, logik jihatlar tasnifni qorishtirib yuborishi, natijada gap tasnifi o‘z mohiyatini yetarlicha ochib bera olmasligini ta’kidlaydi.

I.Rasulovning qarashlariga ko'ra, sodda gaplar sintaktik birlik sifatida ikki asosiy mezon asosida logik va grammatik kategoriyalar orqali baholanishi mumkin. Grammatik kategoriya tilning morfologik va sintaktik vositalari orqali ifodalanadigan birlik bo'lib, gapning tashqi tuzilishini belgilaydi. Masalan, ega va kesimning shaxs-sonda mosligi, zamon, nisbat, mayl kabi belgilar grammatik kategoriyalarga mansub. Aksincha, logik kategoriya gapning mazmuniy tuzilmasini ifodalaydi: predmet, xususiyat, harakat, sabab, vaqt, natija kabi mantiqiy munosabatlar logik struktura orqali yuzaga chiqadi. I.Rasulov ana shu mantiqiy struktura va grammatik ifoda orasidagi tafovutlarni aniqlashtirib beradi.

Inomjon Rasulovning "Hozirgi o'zbek tilida bir sostavli gaplar" nomli dissertatsiyasida keltirilgan "Bir sostavli gaplar, ularning logik-grammatik belgilari" bobida bir sostavli gaplarning sintaktik va mantiqiy xususiyatlari chuqur yoritilgan. Muallif fikricha, bir sostavli gaplar ikki sostavli gaplar kabi gapning barcha asosiy grammatik-mantiqiy belgilari – predikativlik, tugallik, intonatsion birlik, sintaktik bog'liqlik kabi xususiyatlarga ega. I.Rasulov bu gaplarni mustaqil sintaktik birlik sifatida tahlil qiladi va ularni ikki sostavli gaplardan farqlovchi asosiy belgi sifatida predikativlikning yagona bo'lak orqali ifodalanishini ko'rsatadi. [5.B.82] Ya'ni, ikki sostavli gapda predikativ ifoda subyekt va predikat orqali yuzaga chiqsa, bir sostavli gapda bu funksiya faqat bitta bo'lak (ega yoki kesim) orqali ifodalanadi. Bobda sintaktik zamon va mayl tushunchalari morfologik kategoriyalardan ajratib ko'riladi. Sintaktik zamon kontekstdan kelib chiqib har xil zamon ma'nolarini anglatishi mumkinligi, sintaktik mayl esa nutq egasining modallikni qanday ifodalashini bildirishi qayd etiladi. Bu fikrlar rus tilshunosligidagi N.Shvedova, A. Shaxmatov, V.Vinogradovlarning qarashlari bilan bog'liq holda tahlil qilinadi.[6.C.551.]

A.Nurmonov va N.Mahmudovlar tomonidan ta'kidlanganidek: "Predikat ham semantik, ham mantiqiy, ham grammatik tushunchadir. Semantik tushuncha sifatida predikat - har qanday sintaktik qurilmaning nominativ asosi. Grammatik tushuncha sifatida predikat o'zi boshqarib kelaётgan sintaktik elementlarni markazi. Mantiqiy tushuncha sifatida fikrning subyekt belgisini bildiruvchi qismi. [7.B.18]

Xulosa. I.Rasulovning bu bobdagi tahlillari o'zbek tilidagi bir sostavli gaplarning sintaktik tabiati haqida turli nazariy qarashlar va amaliy til faktlari asosida chuqur ilmiy izlanish olib borilganini ko'rsatadi. U mavjud bo'lgan qarama-qarshi yondashuvlarni tanqidiy tahlil qilib, mavzuga oid yondashuvlar o'rtasidagi tafovutlarni yoritadi va yangi ilmiy asoslar yaratishga intiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Хайруллаев М., Ҳақбердиев М. Логика. Тошкент, 1984. – Б. 5
2. Шарипов Ш. А. Мантиқ асослари. — Т.: «Шарқ», 2006. – Б. 5
3. Булгаков С. Н. История логики. — М.: Наука, 2001. – Б. 46
4. Есперсен О. Философия грамматики. – М., 1958. – С.32-33.

5. Танланган асарлар: икки жилдлик/Иномжон Расулов; маъсул муҳаррирб. Ҳамидулла Болтабоев. – Тошкент: МУМТОЗ СЎЗ, 2015. ЖИЛД 1. – Б. 82
6. Шахматов А.А. Синтаксис русского языка. – Л.: [б.и.], 1941. – С. 61.; Виноградов В.В. Некоторые задачи изучения синтаксиса простого предложения // Вопросы языкознания. – 1954. – №1. – С. 12–13.; Шведова Н.Ю. Простое предложение // В кн.: Грамматика современного русского литературного языка. – М.: Наука, 1970. – С. 551.
7. Нурмонов А., Махмудов Н. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси: ўзбек тили ва адабиёти йўналиши талабалари учун ўқув қўлланма. — Тошкент, 2007. – Б. 18

